



XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko'chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2022 - yil 28 - iyul

VI-44-118-8-117-K/22

Termiz tuman hokimligi

Termiz tumani mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-sonli Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining 2022-yil II chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag'lardan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Termiz tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1.O'zbekiston Respublikasi budjet Kodeksining 126-moddasiga muvofiq mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma'lumot uchun inobatga olinsin.

3.Tuman budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **832,0 mln so'mni** tashkil etganligi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi o'tgunga qadar zarur va kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarga qo'shimcha manbalardan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida tuman hokimligining hisoboti hamda tuman budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan zarur xarajatlarga **832,0 mln (sakkiz yuz o'ttiz ikki million) so'm** yo'naltirilsin.

4.Mahalliy budjetning qo'shimcha shakllangan mablag'lari favqulodda

vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5.Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6.Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi L.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Termiz tumani Xalq deputatlari
Kengashi raisi**



Urinov.SH.B

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2022 yil 28 iyuldagi
VI-44-118-8-117-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz tumani budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'lari hisobidan zarur va kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarga yo'naltirilgan

№	Tashkilotlar nomi	Soxalar buyicha ajratilgan mablag' maqsadi	Miqdori (mln so'mda)	Foiz hisobida
	Jami Daromadni oshirib bajarilgan qismi hisobidan manba		832,00	100%
	Shundan		832,00	100%
	Tuman Hokimligining saqlash xarajatlariga		832,00	100%
1	Tuman hokimligi	Budjet ma'lumotlarining ochiqiligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari tuman mahalliy byudjetlari qo'shimcha manbalaridan kamida 30 foizining tadbirlarga moliyalashtirish	249,0	
2	Tuman hokimligi	"Ayollar daftari" jamg'armasiga mablag' ajratish	124,0	
3	Tuman hokimligi	"Yoshlar daftari" jamg'armasiga mablag' ajratish	124,0	
4	Tuman hokimligi	tumandagi og'ir mahallalarining xo'jaliklararo ichki yo'llarini toshlash bilan bog'liq xarajatlar uchun	100,0	
5	Tuman hokimligi	Viloyat kompyuterlashtirish markazi Davlat unitar korxonasi	40,0	
6	Tuman hokimligi	Uzinfocom davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab quvvatlash buyicha yagona integrator MChJ	21,0	
7	Tuman hokimligi	Tuman hokimligining kuriklash xizmati uchun	84,558	
8	Tuman hokimligi	tuman xokimligining xizmat avtomashinlari YoMM uchun	34,0	
9	Tuman hokimligi	tuman xokimligining xizmat avtomashinlari extiyot qismlar sotib olish uchun	46,4420	
10	Tuman hokimligi	Plakat va bannerlar yasatish uchun	9,0	